TASDIQLAYMAN

«Shurtan GKM» MCHJ

Ekspert-texnik komissiyasi raisi

____________ N. Xalilov

«08» ____08____ 2024 y.

"O'zbekneftgaz" AJ
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
074/052-4586
2024 yil "08" 08

№:________________

**"Shurtan GKM" MChJ extiyoji uchun**

**xo'jalik supurgisi xarid qilishga**

# TEXNIK TOPShIRIQ

**ShGKM – 2024 yil**

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

| **1.1 Nomi** |
|---|
| "Shurtan GKM" MChJ extiyoji uchun xo'jalik supurgisi xarid qilishga |
| **1.2 Xo'jalik supurgisini sotib olinishinig asosiy maqsadi** |
| "Shurtan GKM"ning sex, xizmat va bo'limlarining 2024 yil uchun yillik buyurtmasi |
| **1.3 Yangiligi to'g'risida ma'lumot** |
| Xo'jalik supurgisi yangi va 2024 yilda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak |
| **1.4 Ishlab chiqarish bosqichlari/tayyorlanishi** |
| Xo'jalik supurgisi qonunchilikda belgilangan me'yor va talablarga muvofiq ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak. |

## 2. QO'LLANILISh SOXALARI

| |
|---|
| Xo'jalik supurgisi "Shurtan GKM" MChJ binolarining ichki va tashqi qismlarida tozalash ishlari uchun ishlatiladi. |

## 3. TEXNIK TALABLAR

**3.1. Asosiy texnik talablar**

| T/r | Nomi | Texnik xususiyatlari | O'lchov birligi | Soni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xo'jalik supurgisi | Xo'jalik supurgisining dastasi sim (shpagat) bilan kamida 10 ta joydan bog'langan bo'lishi kerak. Supurgi dastasining uzunligi kamida 70 sm bo'lishi kerak. Supurgi ish qismining kengligi eng keng joyida kamida 45 sm bo'lishi kerak. Supurgining ish qismi kamida 4 ta bog'dan iborat bo'lishi va har bir bog'ning diametri kamida 50 mm dan bo'lishi kerak. Dastasining tepa qismi qo'lni himoya qilish uchun issiqlikka bardoshli plyonka qoplangan bo'lishi kerak. Supurgi tabiiy qizil rangda bo'lishi va sifatli materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.   | dona | 3193 |

**3.2.YORLIQQA TALABLAR**

Xo'jalik supurgisi yorlig'ida quyidagilar mavjud bo'lishi kerak.
- Mahsulot nomi;
- Ishlab chiqargan korxonaning nomi, yuridik manzili va tovarlar belgisi (agar mavjud bo'lsa);

| |
|---|
| - Qadoqlangan sanasi;<br>- Shartli belgilari;<br>- O‘lchamlari, vazni, materiali va texnik shartlari. |
| **3.3.O‘LChAM VA QADOQLAShGA TALABLAR** |
| Iste’molchi bilan kelishilgan holda qadoqdagi mahsulot miqdoriga o‘zgartirish kiritish mumkin.<br>Qadoqlashda mahsulotlarni tashish va saqlash sharoitlari hisobga olinishi, namga chidamli qadoqlash materialidan foydalangan bo‘lishi kerak. |

## 4. YETKAZIB BERISh VA QABUL QILISh TALABLARI

Mahsulot qabul qilish xaridor hududida, komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Yetkazib berilayotgan tovar yangi qadoqlangan, yorliqli bo‘lishi kerak. Agarda mahsulot sifatsiz bo‘lsa yoki yetkazib berish vaqtida shikastlansa yetkazib beruvchi tomonidan almashtirilishi kerak.

## 5. TAShIShGA TALABLAR

Mahsulotni tashishda avtotransport vositasi uchun umumiy yuk tashish qoidalariga amal qilinishi shart.

## 6. SAQLANISh TALABLARI

Mahsulot yopiq va nam bo‘lmagan omborlarda saqlanishi zarur.

## 7. KAFOLAT MUDDATI TALABLARI

Har bir mahsulot uchun yetkazib beruvchi tomonidan kafolat muddati kamida 1 yil.

## 8. SIFAT VA KLASSIFIKASIYA TOIFASIGA TALABLAR

Mahsulot sifati va klassifikasiyasi mazkur texnik topshiriq 3.1-bandiga mos kelishi kerak. Sifatsiz mahsulotlar qabul qilinmaydi va yetkazib beruvchi hisobidan qaytarib yuboriladi. Yetkazib berilayotgan mahsulotlar zavod qadog‘ida va zavod nishonida bo‘lishi kerak. Yaroqlilik muddati qadoqda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

## 9. MIQDORI, YETKAZIB BERISH JOYI VA VAQTIGA TALABLAR

Mahsulotlarning soni mazkur texnik topshiriqning 3.1- bandiga mos kelishi kerak.
Yetkazib berish manzili: Qashqadaryo viloyati, G‘uzor tumani, Sho‘rtan qo‘rg‘oni.
Yetkazib berish muddati: Shartnomada ko‘rsatiladi.

***Ishlab chiqdi:***

Maishiy xo‘jalik xizmati moddiy ta’minotchisi: M.Elmurodov

***Kelishildi:***

Maishiy xo‘jalik xizmati boshlig‘i: A.Dusmirzayev

Maishiy xo‘jalik xizmati Boshlig‘ o‘rinbosari: Z.Mamatqulov

MTRB xizmati texnigi: A.Xidirova

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ MTRB xizmati O'ZTF KM. FTGAZ AJ
TEXNIK TOPSHIRIQ VA TEXNIK XULOSALAR UCHUN